“O’zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida elektr energiyasi tejamkorligini ta’minlash maqsadida olib borilgan ishlar

// 24.10.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalarida-elektr-energiyasi-tej

Bugun iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish har qachongidan ham muhim. Bu borada “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarmoq korxonlarida ham amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 14-iyundagi “Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda Prezidentimiz raisligida joriy yil 27-avgust kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida energiya tejamkorligini ta’minlash, muqobil quvvatlardan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan.

Unga ko‘ra “O‘zkimyosanoat” AJ tizim korxonalari tomonidan qo‘shimcha energiya tejamkorlik tadbirlari orqali joriy yil sentyabr–dekabr oylarida 171,9 mln m3 tabiiy gaz va 175,1 mln kVt.s elektr energiyasini iqtisod qilish rejalashtirilgan.

Joriy yilning sentyabr oyidan shu kunga qadar “O‘zkimyosanoat” AJ bo‘yicha 78 980,52 ming m3 tabiiy gaz va 103 403,70 ming kVt.s elektr energiyasini iqtisod qilishga erishildi.

Jumladan, “Navoiyazot” AJda ayni paytga qadar 2 260 kVt quyosh panellari o‘rnatildi. Oktyabr oyi yakuniga qadar 740 kVt quvvatli quyosh panellari ishga tushiriladi. Shuningdek, gaz iste’molini tejash maqsadida 3 ta uskuna ham o‘rnatildi.

“Ammofos-Maxam” AJda esa 19 dona reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmalari o‘rnatildi.

Shu bilan birga “Qizilqum fosforit kompleksi” MCHJda harakat datchiklarining o‘rnatilishi evaziga elektr energiyasini tejash imkoni yaratildi.

Bu kabi sa’y-harakatlar “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi korxonalarda doimiy tarzda davom ettiriladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati